

TA'LIM MUHITIDA GENDER TENGLIK VA EMOTSIONAL INTELLEKT O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-228-232>

Akbarova Dildora Valijonovna

*Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti Psixologiya 1-kurs magistranti,
Psixolog konsultant, Toshkent*

Ilmiy rahbar: Kamalova Zulfiya Xasanovna

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti
+998911363033*

E-mail: Charosik2009@inbox.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim muhitida gender tenglikni ta'minlash va emosional intellektni rivojlantirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida nafaqat bilim berish, balki shaxsning emosional, ijtimoiy va axloqiy rivoji ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Gender tenglik tamoyillariga asoslangan ta'lim muhiti o'quvchilarda adolat, hurmat, hamkorlik va empatiya kabi muhim sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Emosional intellekt esa shaxsning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini belgilaydi. Maqolada gender stereotiplari ta'lim jarayoniga qanday ta'sir qilishi, shuningdek, emosional intellektning shakllanishida tenglikka asoslangan muhitning o'rni yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari pedagogik jarayonda inklyuzivlik va psixologik qulay muhit yaratish zarurligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: *gender tenglik, emosional intellekt, ta'lim muhiti, empatiya, inklyuziv ta'lim, shaxs rivoji, ijtimoiy moslashuv.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается взаимосвязь между гендерным равенством и развитием эмоционального интеллекта в образовательной среде. Современная система образования направлена не только на передачу знаний, но и на формирование гармонично развитой личности, способной к социальному взаимодействию и эмоциональной саморегуляции. Гендерно-равноправная образовательная среда способствует формированию у обучающихся таких качеств, как толерантность, уважение, сотрудничество и эмпатия. Эмоциональный интеллект, в свою очередь, играет важную роль в понимании собственных эмоций и чувств других людей, а также в построении эффективной коммуникации. В статье анализируется влияние гендерных стереотипов на учебный процесс и подчеркивается значение равных возможностей в формировании эмоциональной культуры личности. Делается вывод о необходимости создания психологически благоприятной и инклюзивной образовательной среды.

Ключевые слова: *гендерное равенство, эмоциональный интеллект, образовательная среда, эмпатия, инклюзивное образование, личностное развитие, социальная адаптация.*

ABSTRACT

This article analyzes the relationship between gender equality and the development of emotional intelligence in the educational environment. Modern education is focused not only on providing academic knowledge but also on shaping a well-rounded personality with strong emotional and social skills. A gender-equal educational environment promotes values such as

respect, cooperation, tolerance, and empathy among students. Emotional intelligence plays a key role in understanding and managing one's own emotions as well as in building effective communication with others. The article highlights the impact of gender stereotypes on the learning process and emphasizes the importance of equal opportunities in the development of students' emotional and social competencies. The study concludes that creating an inclusive and psychologically supportive educational environment is essential for improving both academic success and personal development.

Keywords: *gender equality, emotional intelligence, educational environment, empathy, inclusive education, personal development, social skills.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish masalasi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki o'quvchilarning emotsional va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ta'lim muhitida gender tenglikni ta'minlash va emosional intellektni rivojlantirish o'zaro uzviy bog'liq jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Gender tenglikka asoslangan ta'lim muhiti shaxsda adolat, hurmat va empatiya kabi qadriyatlarni mustahkamlaydi. Emosional intellekt esa insonning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va ijtimoiy munosabatlarda samarali muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois mazkur mavzuning ilmiy jihatdan o'rganilishi dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, global miqyosda ta'lim siyosatida teng imkoniyatlarni yaratish va shaxsning psixologik farovonligini ta'minlash ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonida o'zini erkin va qadrlangan his qilgan o'quvchilar bilimlarni tezroq o'zlashtiradi hamda jamoa bilan ishlash ko'nikmalari yaxshiroq shakllanadi. Aynan shunday muhitda emosional intellektning rivojlanishi tezlashadi va shaxslararo munosabatlar yanada sog'lom tus oladi. Bundan tashqari, o'qituvchilarning genderga sezgir pedagogik yondashuvi ham sinfda psixologik muvozanatni saqlashda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot ta'lim muhitini yanada insonparvar va samarali qilishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy xulosalarni ishlab chiqishga qaratilgan[1-19-20].

ASOSIY QISM:

Gender tenglik — bu ta'lim jarayonida barcha o'quvchilarga jinsidan qat'i nazar teng imkoniyatlar yaratish, ularning qadr-qimmatini hurmat qilish va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga sharoit yaratishdir. Zamonaviy pedagogika gender tenglikni nafaqat huquqiy-me'yoriy talab, balki shaxs kamolotining muhim sharti sifatida talqin etadi. Ta'lim muhitida tenglikka amal qilinishi o'quvchilarda adolat tuyg'usini, o'zaro hurmatni va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiradi. Aksincha, gender stereotiplari hukmron bo'lgan muhitda ayrim o'quvchilarning faolligi pasayadi, o'ziga bo'lgan ishonchi susayadi va bu ularning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. “Ta'lim muhitida adolat va tenglik tamoyillarining ta'minlanishi shaxsning emotsional intellektini rivojlantirish uchun muhim shart bo'lib, bu jarayonda empatiya va o'zini boshqarish asosiy rol o'ynaydi”,-deydi Goldman[2-23]. Shu sababli maktab va oliy ta'lim muassasalarida genderga sezgir

pedagogik yondashuvni joriy etish, o‘quv materiallari va ta’lim metodlarini tenglik tamoyiliga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, gender tenglikni ta’minlash ta’lim muassasalarida faqatgina rasmiy hujjatlar yoki umumiy shiorlar bilan cheklanib qolmasligi lozim. U, eng avvalo, o‘qituvchilarning kundalik pedagogik amaliyotida, baholash tizimida, o‘quvchilarga bo‘lgan munosabatda va tarbiyaviy ishlar mazmunida o‘z aksini topishi zarur. Masalan, o‘quvchilarning qobiliyatini jinsga bog‘lab baholash yoki ayrim fanlarni muayyan jins vakillari uchun “mos” deb hisoblash kabi yondashuvlar ularning ichki imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qiladi[3-42-45]. Gender neytral pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarning individual emotsional xususiyatlarini jins bilan bog‘lamasdan rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bunday yondashuvda “bu his qizlarga xos” yoki “bu xatti-harakat o‘g‘il bolalarga mos” degan cheklovlar yo‘q qilinadi. Natijada o‘quvchilar empatiya, emotsional moslashuvchanlik va affektiv refleksiya ko‘nikmalarini erkin rivojlantiradilar. Gender neytral ta’lim muhiti mavjud bo‘lgan sinflarda o‘quvchilar o‘rtasida emotsional ziddiyatlar kamroq kuzatiladi, o‘zaro tushunish darajasi esa yuqoriroq bo‘ladi. Bu holat emotsional intellektning ijtimoiy komponenti – boshqalar his-tuyg‘ularini tan olish va hurmat qilish qobiliyatining mustahkamlanishiga olib keladi. Shu bilan birga, o‘quv dasturlari va darsliklarda ham gender muvozanatini saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Agar o‘quv materiallarida turli ijtimoiy rollarda erkak va ayol obrazlari teng va haqqoniy tarzda yoritilsa, bu o‘quvchilarda jamiyatdagi ijtimoiy adolat haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi. Natijada, ta’lim muhiti nafaqat bilim beruvchi makon, balki tenglik, hurmat va o‘zaro tushunishga asoslangan ijtimoiy makonga aylanadi. Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o‘rtasida emotsional intellekt shakllangan bo‘lishi lozim. Emosional intellekt shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, ularni boshqarish, boshqalarning emotsional holatini tushunish va samarali muloqot o‘rnatish qobiliyatini ifodalaydi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori emosional intellektga ega bo‘lgan shaxslar stressga bardoshlilik, ijtimoiy moslashuvi va jamoada ishlash ko‘nikmalari bilan ajralib turadi. Ta’lim jarayonida emosional intellektning rivojlanishi o‘quvchilarning nafaqat akademik muvaffaqiyatiga, balki ularning shaxs sifatida kamol topishiga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, nizoli vaziyatlarni tinch yo‘l bilan hal qilish, boshqalarning fikrini tushunish va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari aynan emosional intellekt orqali shakllanadi[4-88-90-91].

Gender tenglik va emosional intellekt o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik. Gender tenglikka asoslangan ta’lim muhiti emosional intellekt rivoji uchun qulay psixologik sharoit yaratadi. O‘zini kamsitilmagan, qadrlangan va qo‘llab-quvvatlangan his qilgan o‘quvchi o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda etadi, boshqalarni tushunishga intiladi va ijtimoiy munosabatlarda faolroq bo‘ladi. Bu esa uning emosional intellekti shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, rivojlangan emosional intellekt gender tenglik madaniyatining qaror topishiga ham xizmat qiladi. Chunki empatiya, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmat kabi sifatlar aynan emosional yetuklik orqali mustahkamlanadi. Natijada sinf yoki talaba guruhida

sogʻlom psixologik muhit shakllanadi va bu taʼlim samaradorligini oshiradi. Vygotsky bu haqida: “Shaxsning emotsional rivoji ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, taʼlim muhitida gender tenglikka asoslangan muloqot emotsional intellektning shakllanishini tezlashtiradi”, deydi[5-56].

Ijtimoiy moslashuv bilan bogʻliqligi. Gender tenglikka asoslangan taʼlim muhiti oʻquvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Bunday muhitda emotsional intellekt yuqori darajada shakllanib, oʻquvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarda oʻz his-tuygʻularini boshqarish va konstruktiv muloqot olib borishga qodir boʻladilar. Ayniqsa, qarama-qarshi jins vakillari bilan muloqotda empatiya va oʻzaro hurmat kuchayadi. Natijada taʼlim muhitida gender tenglik va emotsional intellekt oʻzaro mustahkamlovchi tizim sifatida namoyon boʻladi: gender tenglik emotsional intellektni rivojlantiradi, rivojlangan emotsional intellekt esa gender tenglikka asoslangan munosabatlarni qoʻllab-quvvatlaydi. Daniel Goleman: “Emotsional intellekti rivojlangan shaxslar ijtimoiy vaziyatlarga moslashishda yuqori darajada muvaffaqiyatga erishadi, chunki ular oʻz his-tuygʻularini boshqarish va boshqalar emotsiyasini anglash orqali ijtimoiy muhitga samarali integratsiyalasha oladi”, deydi[6-190]. Moslashuv borasida Alfred Bondura oʻzining ijtimoiy moslashuv asarida: “Shaxsning ijtimoiy moslashuvi kuzatish, taqlid va ijtimoiy tajriba orqali shakllanadi; tenglik va adolat ustuvor boʻlgan taʼlim muhitida bu jarayon yanada samarali kechadi”, deydi [7-208]. Oʻqituvchining shaxsiy namunaliligi, adolatli munosabati va genderga sezgir yondashuvi oʻquvchilarning emosional rivojida muhim rol oʻynaydi. Taʼlim jarayonida guruhli ishlash, munozaralar, rolli oʻyinlar va refleksiv mashgʻulotlardan foydalanish oʻquvchilarning ham emosional intellektini, ham ijtimoiy tenglikka boʻlgan munosabatini mustahkamlaydi. Shuningdek, taʼlim muassasalarida inklyuziv va insonparvar muhitni shakllantirish orqali har bir oʻquvchining shaxsiy salohiyatini toʻliq namoyon etish imkoniyati yaratiladi. Bu esa kelajakda ijtimoiy masʼuliyatli, tolerant va psixologik jihatdan yetuk shaxslarning shakllanishiga xizmat qiladi[8-93].

Tadqiqot tahlili. Olib borilgan nazariy tahlil va pedagogik kuzatuvlar shuni koʻrsatdiki, taʼlim muhitida gender tenglik tamoyillariga rioya etilishi oʻquvchilarning psixologik holati va ijtimoiy faolligiga sezilarli ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Xususan, tenglikka asoslangan sinf muhitida oʻquvchilarning oʻz fikrini erkin ifoda etish darajasi, oʻziga boʻlgan ishonchi va jamoaviy ishlarda ishtiroki ancha yuqori boʻlishi aniqlandi. Tadqiqot jarayonida, shuningdek, emosional intellekt koʻrsatkichlari bilan psixologik qulay muhit oʻrtasida bevosita bogʻliqlik mavjudligi kuzatildi. Oʻzini hurmat qilingan va qoʻllab-quvvatlangan deb his qilgan oʻquvchilarda empatiya, stressga bardoshlilik va muloqot madaniyati yuqori darajada shakllanganligi qayd etildi. Bunday sharoitda nizoli vaziyatlar kamroq uchrashi va muammolar konstruktiv yoʻl bilan hal etilishi kuzatildi. Oʻqituvchilarning genderga sezgir pedagogik yondashuvi oʻquvchilarning oʻquv motivatsiyasini oshirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, adolatli va xolis munosabat hukmron boʻlgan taʼlim muhitida

o'quvchilarning nafaqat akademik ko'rsatkichlari, balki shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalari ham izchil rivojlanadi. Umuman olganda, o'tkazilgan tahlillar gender tenglikka asoslangan ta'lim muhiti emosional intellekt rivoji uchun muhim psixologik-pedagogik omil ekanini tasdiqlaydi hamda ta'lim tizimida inklyuziv va insonparvar yondashuvni yanada kuchaytirish zarurligini asoslab beradi.

XULOSA VA TAVSIYALAR.

Ushbu tadqiqot ustida ishlash jarayonida shuni anglashildiki, ta'lim muhitida gender tenglik masalasi va emosional intellektni rivojlantirish bir-biri bilan uzviy bog'liq. Agar o'quvchi o'zini hurmat qilingan, qadrlangan va teng ko'rilgan deb his qilsa, u darslarda faolroq bo'ladi, o'z fikrini erkin ayta oladi va boshqalar bilan muloqotda ham ancha ochiq bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, uning emosional jihatdan yetuk shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi. Ish jarayonida shunga ham amin bo'lish mumkin, faqat bilim berishning o'zi yetarli emas, balki ta'lim jarayonida sog'lom psixologik muhit yaratish ham juda muhim. O'qituvchining adolatli munosabati, har bir o'quvchiga bir xil e'tibor qaratishi va genderga sezgir yondashuvi sinfda o'zaro hurmat va ishonch muhitini shakllantiradi. Bunday muhitda esa nafaqat o'qish samaradorligi oshadi, balki bolalarning empatiya, sabr-toqat va muloqot madaniyati ham rivojlanadi. Shu asosda, kelgusida ta'lim muassasalarida gender tenglik tamoyillarini yanada faolroq joriy etish, o'qituvchilar uchun maxsus treninglar tashkil qilish va dars jarayonlarida interfaol usullardan ko'proq foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Bundan tashqari, o'quvchilarning emosional intellektini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni ham ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich kiritish foydali bo'ladi. Umuman olganda, agar ta'lim muhitida tenglik va insoniylik ustuvor bo'lsa, bu kelajakda nafaqat bilimli, balki ma'naviy va psixologik jihatdan yetuk avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Goleman, D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books, 1995.
2. Salovey, P., Mayer, J. D. Emotional Intelligence. Imagination, Cognition and Personality, 1990.
3. Кон, И.С. Психология половых различий. Москва: Просвещение, 2003.
4. Ильин, Е.П. Эмоции и чувства. Санкт-Петербург: Питер, 2011.
5. Қодиров Б.П. Shaxs psixologiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 2010.
6. <https://www.unesco.org/en/education/gender-equality-education-and-training>
7. <https://www.unicef.org/education/girls-education-and-gender-equality>
8. <https://www.apa.org/topics/emotional-intelligence/understanding-emotional-intelligence>
9. <https://www.oecd.org/education/global-competence/education-and-gender-equality>
10. <https://www.verywellmind.com/what-is-emotional-intelligence-2795423>